

IMOM BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

ADU Umumiy pedagogika kafedrası o`qituvchisi

Ahmadaliyeva Nurxon Mirzayevna

Andijon viloyati Buloqboshi tumani 43-MFIDUM

Oliy toifali ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Annotatsiya: *Yoshlar barcha sohada yetakchi bo`lishlari uchun eng avvalo, go`zal odob-ahloqli bo`lishlari kerak. Chunki, islom ta`limotiga ko`ra, odob oxirat ne`matlariga etkazuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.*

Qur`oni karimda ham Rasululloh (alayhissalom) hadislarida ham odob-ahloq masalalariga alohida e`tibor qaratilgan. Hadislarda “Kuchli mo`min Alloh taologa zaif mo`mindan ko`ra mahjubroq va afzalroq” ekani bayon qilinadi. Hozirgi globallashuv sharoitida “kuchli mo`min” deyilganda nafaqat mushaklar bilan, balki, ilm-ma`rifat, zamonaviy fan-texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish orqali uni jamiyat manfaatlari uchun qildiradigan insonni tushunamiz. Ushbu maqolada yoshlarni “omnaviy madaniyat” kabi kirib kelayotgan turli hurujlar va odob-ahloq me`yorlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: *Islom dini, kitob, ilm, bilim, hadis, ma`naviyat, mustaqil fikr, o`qishga o`rgatish, badiiy adabiyot, inson kamoloti, inson omili, odob-ahloq, ta`lim-tarbiya, jamiyat.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИМАМА БУХАРИ

Аннотация: *Для того чтобы молодые люди были лидерами во всех сферах, в первую очередь, они должны обладать хорошими манерами. Потому что, согласно исламскому учению, манеры являются одним из основных средств достижения благ будущей жизни.*

И Священный Коран, и хадисы Пророка (мир ему и благословение) уделяют особое внимание вопросам манер. В сборнике достоверных хадисов имама Бухари говорится, что «сильный верующий более любим и предпочтителен для Аллаха, чем слабый верующий». В современных условиях глобализации, когда мы говорим «сильно верующий», мы имеем в виду человека, который делает это на благо общества не только мускулами, но и эффективно используя достижения науки и современной науки и техники. В данной статье размышляются о различных установках и нравственных нормах, которые входят в молодежь как «популярную культуру».

Ключевые слова: *Ислам, книга, наука, знание, хадис, духовность, самостоятельное мышление, обучение чтению, художественная литература, человеческое совершенство, человеческий фактор, нравы, образование, общество.*

PEDAGOGICAL VIEWS OF IMAM BUKHARY

Abstract: *In order for young people to be leaders in all fields, first of all, they should have good manners. Because, according to Islamic teachings, manners are one of the main means of achieving the blessings of the hereafter.*

Both the Holy Qur'an and the hadiths of the Prophet (peace be upon him) pay special attention to issues of manners. Imam Bukhari's collection of authentic hadiths states that "A strong believer is more beloved and preferable to Allah than a weak believer." In today's globalization conditions, when we say "strong believer", we mean a person who does it for the benefit of society not only with muscles, but also by making effective use of the achievements of science and modern science and technology. This article reflects on the various attitudes and moral standards that enter the youth as "popular culture".

Key words: *Islam, book, science, knowledge, hadith, spirituality, independent thought, teaching to read, fiction, human perfection, human factor, manners, education, society.*

Kirish qism. (Introduction)

Istiqlol yillarida barcha sohada bo`lgani kabi yoshlar va ularning ta`lim-tarbiyasida ham ulkan islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar eng avvalo, ajdodlarimizdan qolgan boy ma`naviy merosni, bunyodkorlik g`oyalari va ezgu ta`limotlarni yoshlar ongiga singdirish va shu bilan birga ularni imon-e`tiqodli, Vatanga sodiq, olijanoblik ruhida tarbiyalashda o`z aksini topmoqda. Farzandlarimizning ajdodlarimiz kabi dunyo tamaddudini rivojiga xizmat qila oladigan bo`lib kamol topishini ta`minlash bugungi kunimizning dolzarb vazifasidir.

Butun dunyo ta`lim-tarbiya tizimida bo`layotgani kabi ta`lim yechimi insoniylashib, mazmuni insonparvarlashmoqda. Yurtimizda ham ta`lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko`ngil tarbiyasiga, ya`ni inson ma`naviyatini shakllantirishga birlamchi yumush sifatida ustuvor vazifa qilib qo`yilmoqda. Insoniy kamolotni taminlashda o`quvchilarning o`z ishtiroki, ularning bilim olish va tarbiyalash borasida bevosita qatnashish masalasi hamda mutolaa madaniyati masalasi yangilanayotgan milliy pedagogikada dolzarb ahamiyatga ega.

Bu masala yuzasidan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida ham farzandlar tarbiyasi va ularning komil inson bo`lib etishishida odob-ahloqning o`rni katta ekanligi alohida e`tirof etilgan. Hozirgi yoshlar ongiga ma`naviyatimiz va ahloqimizga butunlay yod bo`lgan eng xatarli illatlarni, jumladan, diniy ta`limotlarni no`to`g`ri talqin qilish orqali ularni o`z ota-onalari, oilasi va yaqinlaridan uzoqlashtirish, o`qish va ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to`qnashuvlar ketayotgan mamlakatlarga jo`natib, manqurt-jangarilarga yoki "tirik bomba" ga aylantirishga intilishlar bo`lmoqda.

Hadisi shariflarda insonlarning eng yaxshisi go`zal xulqli va chiroyli muomalali kishilar ekanligi ta`kidlanadi. Jumladan, Imom Buxoriyning hadislar to`plamida "Albatta sizlarning eng yaxshilaringiz xulqi yaxshilaringizdir deyilib go`zal ahloq ulug`langan".

Asosiy qism. (Main part)

Xalqimizda azal-azaldan odob-ahloq va ta`lim-tarbiyaga katta e`tibor berilgan. Olimlar qadimdan adab ilmini, bola tarbiyashni qadimdan chuqur o`rganib, rivojlantirib kelganlar. Ayniqsa, buyuk bobomiz Imom Buxoriyning "Al-jome`as-Sahih", "Al-Adab ul-mufrad", "Kitob asmo`is-sahoba", "Kitob af`ol il-ibod", "Kitob bad`il-maxluqot", "Kitob birr il-volidayn", "Ta`rix us-siqot va-z-zu`afo min ruvot il-hadis", "Ta`rix Buxoro", "Kitob us-

sulosiyyot”, “Al-Jomi` as-sag`iyr”, “Al-Jomi` al-kabiyr”, “Kitob-ul-favoid”, “Kitob ul-qiroa xalfa-l-imom”, “Kitob ul-kuna”, “Kitob ul-vijdon”, Kitob ul-hiba”, “Xulq af`ol il-ibod”, “Kitob ul-musnad al-kabiyr” va boshqa asarlari inson har taraflama go`zal odobli, yaxshi xulqli, iffatli va hayoli bo`lishga, nafsni poklashga va inson ma`naviy kamolotining asosi bo`lgan odob-ahloq va tarbiyaning barcha jihatlari o`z ifodasini topgan.

Imom Buxoriyning “Al-Jomi` as-sahih” (“Ishonarli to`plam”) deb nomlangan hadislar to`plamining 11-bobi “Bir ishini qilishdan ham so`zlashdan ham avval ilm darkorligi to`g`risida” quyidagi hadis keltiriladi:

Alloh taolo oyati karimasida: “Bilgil, Alloh yakkayu yagonadir”,- degan so`zini ham “bil” degan so`z bilan boshlagan. Olimlar-payg`ambarlarning merosxo`rlari ilmni payg`ambarlardan o`rganishadi. “Kimki ilm olgan bo`lsa, payg`ambar alayhissalomdan meros olibdir” degan hadisda ham ilm olish kerakligi haqida uqtirilgandir. “Kimki ilm istab qadam qo`ysa, Alloh taolo unga jannat yo`lini oson qilg`aydir”- deyiladi boshqa hadisda. Alloh taolo oyati karimasida: “Allohdan olim bandalari haqiqatdan ham qo`rqqaydirlar” - deyilgan. Ikkinchi bir oyatda: “Bu so`zlarni faqat olimlar tushungaydir”-deyilgan bo`lsa, boshqalarida: “Do`zaxiyar” Agar tinglab fikr yuritganimizda erdi, do`zax ahlidan bo`lmagan bo`lur edik”,-deyishadi. “Bilganlar bilan bilmaganlar tengmi?”-deyilgan.

Sahoba Abu Zarr:”Agar qilichni mana bunga (bo`yinga) qo`ysangizu bo`ynimni uzib yubormasangizdan avval men Rasulullohdan eshitgan so`zlarimdan birortasini aytib ulgurmog`im mumkinligini bilsam aytib olar edim”,-degan ekanlar.

Ibn Abbos ”Kunu rabboniyna! Ya`ni ”rabboniy bo`lingiz” deb tarjima qildilar. Imom Buxoriy: “Rabboniy degani odamlarni katta ilmlardan avval kichiklar birlan tarbiyalagan kishidir”, -deganlar.

Darhaqiqat, farzandlarga ilm-ma`rifat, chiroyli odob-ahloqni o`rgatish nafl ibodatdan ko`ra afzal va savobli amallardan hisoblanadi. Chunki farzandlarini solih qilib tarbiyalagan kishi bu dunyo va oxiratda rohat topadi. Yaxshi farzandning sadaqai joriyasi, savobli ishlari ota-onasining qabrini nurli, ruhi poklarini shod va masrur qiladi.

Natijalar va muhokamarlar (Results and Discussions)

Imom Buxoriyning “Al-Jomi` as-sahih” (“Ishonarli to`plam”) deb nomlangan 4 jild (juz`)dan iborat hadislar to`plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to`plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To`plamda Payg`ambar sallallohu alayhi va sallam hadislaridan tashqari, fiqh(islom huquqshunosligi), islom marosimchiligi, odob-ahloq, ta`lim-tarbiya hamda o`sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma`lumotlar ham mavjud. Unga 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritilgan. Mazkur to`plam Misr va bir qancha mamlakatlarda juda ko`p marta chop etilgan va unga yirik ulamolar tomonidan sharhlar bitilgan.

Xulosa (Conclusion).

Imom Buxoriyning islom olamida Qur`oni Karimdan keyin ikkinchi muqaddas kitob hisoblanmish “Al Jomi` as-sahih”larining o`zbek tilida xalqimizga etkazilishi katta voqea bo`lib, u dinu e`tiqodimizni hamda ma`naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda odob-ahloq, halollik, rostgo`ylik, poklik, singari umuminsoniy fazilatlarini qaror toptirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam:”kingaki Alloh taolo yaxshilikni ravo ko`rg`aydir, uni din ilmidan bahramand qilg`aydir, ilmga ilm

olmoq yo`li bilan erishilg`aydir”-deganlar. Alloh taolo barchamizni rishdu hidoyatga boshlasin, omiyn!

ADABIYOTLAR:

1. Abu Abdulloh idn Ismoil Al-Buxoriy. “Al-adab al-mufrad” - T.: O`zbekiston, 1990
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Xadis” Toshkent:2012
3. Mustaqillik:Izohli ilmiy-ommabop lug`at. Mualliflar: Abdullayev M., G.Abdurazzoqova va M.Abdullayeva umumiy tahriri ostida. T:Sharq, 2000.
4. Qur'onov M. Milliy tarbiya. Respublika ma`naviyat va ma`rifat kengashi. Milliy g`oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi.-T.:Ma`naviyat, 2007.
5. Ubaydulla Uvatov. Muhaddislar imomi. Toshkent. “Ma`naviyat” 1998 yil.
6. Qodirxon Mahmudov. Hadislar haqida tushuncha. (maqola)
7. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik -T: O`qituvchi, 2005 yil.
8. Mansurov A., Jo`rayev., Lafasov., M Hadis ilmi saboqlari.-T.:1999, Gofur Gulom nashriyoti.
9. Usmonxon Hoji Temurxon o`g`li va Baxtiyor Nabixon O`gli., Imom Al-BuxoriyMuhaddislar Sultoni. -T.:1999.
10. D.Raximjonov, M.Muhammadsiddiqov. Ilm-ma`rifatning fazilatleri. Toshkent-2018
11. Toxir Malik halol nima-yu...Harom nima.Toshkent:”yangi asr avlodi” 2020